



TARJIMASHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI



Ismailova Xamida qizi To'xta qizi

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili), 203-guruh talabasi,

Oriental universiteti, Toshkent

Saidova Maxsudaxon Abbasovna

Katta o'qituvchi, Oriental universiteti, Toshkent

ABSTRACT. This article examines the formation and development stages of translation studies as an independent scientific discipline and its role in modern linguistics. The theoretical foundations of the translation process, the concepts of equivalence and adequacy, as well as functional and cultural approaches to translation are analyzed. Particular attention is paid to the importance of cultural and pragmatic factors in ensuring translation quality. The conclusions are drawn based on the scientific views of leading scholars in translation studies.

Keywords: translation studies, translation theory, equivalence, adequacy, translation process, intercultural communication

ANNOTATSIYA. Maqolada tarjimashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda uning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni tahlil qilinadi. Tarjima jarayonining nazariy asoslari, ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari, shuningdek, funksional va madaniy yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Yetakchi tarjimashunos olimlarning ilmiy qarashlari asosida umumiy xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, tarjima nazariyasi, ekvivalentlik, adekvatlik, tarjima jarayoni, madaniyatlararo muloqot

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются этапы формирования и развития переводоведения как самостоятельной научной дисциплины и его роль в современной лингвистике. Анализируются теоретические основы переводческого процесса, понятия эквивалентности и адекватности, а также функциональные и культурные подходы к переводу. Особое внимание уделяется значению культурных и прагматических факторов для обеспечения качества перевода. Выводы сделаны на основе научных взглядов ведущих специалистов в области переводоведения.

Ключевые слова: переводоведение, теория перевода, эквивалентность, адекватность, процесс перевода, межкультурная коммуникация.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida tillararo va madaniyatlararo muloqotning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tarjima bu jarayonda nafaqat til vositasi, balki madaniyatlararo bog'lovchi ko'priq sifatida xizmat qiladi. Tarjima jarayoni matnni bir tildan ikkinchi tilga ko'chirishdan tashqari, turli dunyoqarashlar, ijtimoiy tajribalar va madaniy qadriyatlarni uzatishni ham o'z ichiga oladi.

Shu sababli tarjimani faqat amaliy faoliyat sifatida emas, balki ilmiy jihatdan ham tadqiq etish zarurati yuzaga keladi. Tarjimashunoslik tarjima jarayonining nazariy, amaliy va tarixiy



jihatlarni o'rganuvchi mustaqil fan sohasi bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

Tarjima insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqani ta'minlab kelgan muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Dastlab tarjima faqat matnni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z o'girish sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik uning murakkab lingvomadaniy jarayon ekani anglab yetildi.

Tarjimashunoslik fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Ungacha tarjima masalalari asosan adabiyotshunoslik va umumiy tilshunoslik doirasida o'rganilgan. J.S.Holmes tarjimashunoslikni mustaqil fan sifatida asoslab, uning tadqiqot yo'nalishlarini aniq belgilab berdi.

Olim tarjimashunoslikni nazariy, tavsifiy va amaliy tarjima turlariga ajratadi. Bu tasnif tarjima jarayonini tizimli o'rganishga imkon yaratadi. Tarjima jarayonidagi eng muhim masalalardan biri **ekvivalentlik** tushunchasidir. Ekvivalentlik asl matn va tarjima matni o'rtasidagi mazmuniy, uslubiy va funksional moslikni ifodalaydi.

E. Nida formal va dinamik ekvivalentlik nazariyasini ilgari surgan. Unga ko'ra, tarjima o'quvchiga asl matn bilan bir xil ta'sir ko'rsatishi lozim. J. C. Catford esa tarjimini lingvistik hodisa sifatida tahlil qilib, ekvivalentlikni til darajalari bilan bog'laydi va grammatik hamda leksik o'zgarishlar tarjimada muqarrar ekanini ta'kidlaydi.

Funksional yondashuv esa tarjimini muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat sifatida talqin qiladi. H. J. Vermeer tomonidan ishlab chiqilgan Skopos nazariyasiga ko'ra, tarjimaning shakli va strategiyasi uning maqsadi bilan belgilanadi. Ushbu nazariya tarjimonning ijodiy erkinligini oshirib, tarjimini ijtimoiy hodisa sifatida baholaydi.

Madaniy va pragmatik omillar, tarjimon shaxsiyati va strategiyalariga ham alohida e'tibor berilgan.

Zamonaviy tarjimashunoslikda **madaniy omillarga alohida e'tibor** qaratiladi. Har bir til muayyan xalqning madaniyati, an'analari va mentalitetini aks ettiradi. Shu sababli tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. S. Bassnett tarjimini madaniyatlararo muloqot shakli sifatida talqin qilib, tarjimonning madaniy bilimlari tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Pragmatik yondashuv tarjimini auditoriya, kommunikativ vaziyat va maqsad bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Kinoya, presuppozitsiya va konnotativ ma'nolarni to'g'ri uzatish tarjimaning kommunikativ muvaffaqiyatini belgilaydi.

Tarjima jarayonida tarjimon shaxsiyati ham muhim omillardan biridir. Tarjimon nafaqat til vositachisi, balki madaniyatlararo vositachi sifatida faoliyat yuritadi. L.Venuti tarjimonni "ko'rinmas shaxs" sifatida talqin qilish noto'g'ri ekanini ta'kidlab, tarjimon har doim matnda o'z izini qoldirishini qayd etadi.

Domestikatsiya va chetlashtirish strategiyalari tarjima jarayonida keng qo'llaniladi. Domestikatsiya matnni qabul qiluvchi madaniyatga moslashtiradi, chetlashtirish esa asl madaniy xususiyatlarni saqlaydi. Ushbu strategiyalar tanlovi tarjimaning maqsadi va auditoriyasiga bog'liq.

TADQIQOT NATIJALARI shuni ko'rsatdiki:



- Tarjimashunoslik dastlab umumiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmidan mustaqil ilmiy soha sifatida shakllangan.
- Tarjima jarayonini faqat lingvistik birliklar asosida tushuntirish yetarli emas. Ekvivalentlik turli nazariyalarda turlicha talqin qilinadi va u tarjimaning maqsadi, auditoriyasi va kommunikativ vazifasiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi.
- Funktsional yondashuv va skopos nazariyasi tarjimoni qaror qabul qilish jarayonida muayyan erkinlikka ega ekanini ko‘rsatadi.
- Madaniy va pragmatik omillar tarjima mazmuni va kommunikativ samaradorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.
- Tarjimon shaxsiyati va tanlangan strategiyalar tarjima mahsulining mazmuni va uslubiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

XULOSA. Maqolada tarjimashunoslik fanining shakllanishi, asosiy nazariy yondashuvlari hamda tarjima jarayoniga ta‘sir etuvchi madaniy va pragmatik omillar tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tarjima faqat til birliklarini almashtirish jarayoni emas, balki murakkab kommunikativ faoliyatdir.

Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik tushunchasi mutlaq mezon sifatida emas, balki tarjima maqsadi va kommunikativ vazifaga bog‘liq holda talqin qilinadi. Funktsional va pragmatik yondashuvlar tarjimonning faol subyekt sifatidagi rolini kuchaytiradi. Madaniy omillarni hisobga olmasdan amalga oshirilgan tarjima matnning mazmuniy va pragmatik to‘liqligini ta‘minlay olmaydi.

Shu sababli tarjima jarayoniga kompleks yondashuv uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarjimashunoslik nazariyasini chuqur o‘rganish va uni amaliy tarjima jarayoni bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy tarjima tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bassnett, S. Translation Studies. — London: Routledge, 2002. — P. 188.
2. Byrne, J. Technical Translation. — London: Routledge, 2006. — P. 212.
3. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. — Oxford: Oxford University Press, 1965. — P. 103.
4. Hatim, B., Mason, I. Discourse and the Translator. — London: Longman, 1990. — P. 223.
5. Holmes, J. S. The Name and Nature of Translation Studies. In: Translation Studies Reader. — London: Routledge, 1988. — pp. 67–80.
6. Kenny, D. Lexis and Creativity in Translation. — Manchester: St. Jerome Publishing, 2001. — P. 248.
7. Nida, E. Toward a Science of Translating. — Leiden: E. J. Brill, 1964. — P. 331.
8. Venuti, L. The Translator’s Invisibility. — London: Routledge, 1995. — P. 353.
9. Vermeer, H. J. Skopos Theory Explained. — Heidelberg: University Press, 1989. — P. 198.
10. Yo‘ldoshev, B. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2010. — 176 bet.